

Kosmos – cheksizlikdan biznesgacha!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi tomonidan 2021 yil 1 dekabrda Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetida kosmik soha yutuqlarini keng yoritish maqsadida Anastasiya Stepanova hamda Vitaliy Yegorov kabi xorijiy ekspertlar ishtirokida "Kosmos – cheksizlikdan biznesgacha" mavzusidagi tadbir bo'lib o'tdi.

Anastasiya Stepanova – "Mars-160" va "SIRIUS-19" xalqaro kosmik loyihalari ekipaji a'zosi.

Mazkur tadbirda xorijiy ekspertlar tomonidan kosmik soha bilan tanishtiruv, ekspertlarning sohadagi shaxsiy hayotiy tajribalari, hozirda sohada xususiy sektor vakillari uchun keng imkoniyatlar mavjudligi to'g'risidagi mavzularga bag'ishlangan taqdimot-ma'ruza bo'lib o'tdi